

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 118 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Sanjar Temur o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

sanjaraxmedov07@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7397-9828>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda kichik korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning mazmuni ochib berilib, ularning xizmatlar sohasi xususiyatlariga moslashtirilgan modeli taklif etilgan. Shuningdek, davlat, bozor va kichik korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqola natijalari xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, kichik korxonalar, raqobatbardoshlik, mexanizm, tashkiliy-iqtisodiy yondashuv, davlat va bozor integratsiyasi.

Abstract. This article examines the scientific and practical aspects of improving mechanisms for enhancing the competitiveness of small enterprises in the service sector. The study раскрывает the essence of organizational and economic mechanisms aimed at ensuring the competitiveness of small enterprises and proposes a model adapted to the specific features of the service sector. It also substantiates the possibilities of increasing competitiveness through strengthening the interaction between the state, the market, and small enterprises. The results of the study provide a basis for developing practical recommendations for the development of small service enterprises.

Keywords: service sector, small enterprises, competitiveness, mechanism, organizational and economic approach, state-market interaction.

Аннотация. В статье исследуются научно-практические аспекты совершенствования механизмов повышения конкурентоспособности малых предприятий сферы услуг. Раскрывается содержание организационно-экономических механизмов, направленных на обеспечение конкурентоспособности малых предприятий, и предлагается их модель, адаптированная к специфике сферы услуг. Обоснованы возможности повышения конкурентоспособности за счет усиления взаимодействия государства, рынка и малых предприятий. Результаты исследования послужили основой для разработки практических рекомендаций по развитию малых предприятий в сфере услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, малые предприятия, конкурентоспособность, механизм, организационно-экономический подход, государственно-рыночное взаимодействие.

KIRISH

So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan va barqaror bandlikni ta'minlovchi tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu sohada kichik korxonalar ustuvor mavqega ega bo'lib, ular bozor ehtiyojlariga moslashuvchanligi, xizmatlar diversifikatsiyasi hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirishdagi roli bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, xizmatlar bozorida raqobatning kuchayib borishi, iste'molchilar talabining murakkablashuvi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining texnologik



jihatdan yangilanib borishi kichik korxonalar oldiga raqobatbardoshlikni tizimli ravishda oshirish vazifasini qo'yimoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligi ko'pincha alohida omillar – masalan, xizmat sifati yoki narx ustunligi orqali ta'minlanishga uriniladi. Biroq bunday yondashuv qisqa muddatli natija berib, uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirish imkonini bermaydi. Xizmatlar bozorining o'ziga xos jihatlari – nomoddiylik, iste'molchi bilan bevosita aloqadorlik, xizmat jarayonining moslashuvchanligi – kichik korxonalar raqobatbardoshligini kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda kichik korxonalar raqobatbardoshligi masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, tadqiqotlarning aksariyati baholash yoki omillar tahlili bilan cheklanadi. Amaliy jihatdan esa raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlarning mazmuni, tarkibi va joriy etish bosqichlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat, bozor va kichik korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasini alohida omillar yoki qisqa muddatli choralar doirasida emas, balki tizimli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asosida hal etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday mexanizmlar kichik korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish hamda barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy yechimlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini shakllantirish masalalari xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlarda turli institutsional va boshqaruv yondashuvlari asosida tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarni mazmunan bir nechta asosiy ilmiy yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalishda raqobatbardoshlikni oshirishning institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. D. North institutsional iqtisodiyot doirasida bozor subyektlari faoliyatining samaradorligi rasmiy va norasmiy institutlar sifatiga bevosita bog'liqligini asoslab beradi. Uning fikricha, kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun mulk huquqlarini himoyalash, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalishda kichik biznesni rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Rodrik tadqiqotlarida iqtisodiy rivojlanish jarayonida davlatning faqat tartibga soluvchi emas, balki muvofiqlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Uning yondashuviga ko'ra, kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji va axborot qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali samaraliroq amalga oshiriladi.

Uchinchi yo'nalishda raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan. Mintzberg tashkilotlarni boshqarish nazariyasida moslashuvchan tashkiliy tuzilmalar va strategik boshqaruv kichik korxonalar uchun muhim ustunlik manbai ekanini asoslaydi. Uning fikricha, xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish qat'iy ierarxik boshqaruvdan ko'ra moslashuvchan va jarayonga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlari orqali ta'minlanadi.

To'rtinchi yo'nalishda xizmatlar iqtisodiyotida tarmoq va klaster mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Porterning klaster yondashuvini rivojlantirgan Delgado, Ketels va Stern tadqiqotlarida hududiy klasterlar kichik korxonalar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish, bilimlar almashinuvini tezlashtirish va bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi ko'rsatilgan. Ushbu mexanizm xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda samarali tashkiliy yechim sifatida qaraladi.

Beshinchi yo'nalishda kichik korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda institutsional infratuzilma va servis mexanizmlari tahlil qilingan. Isenberg tadqiqotlarida tadbirkorlik ekotizimi konsepsiyasi ilgari surilib, biznes-inkubatorlar, konsalting xizmatlari, moliyaviy va axborot infratuzilmasining rivoji kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim mexanizm sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zaruratini asoslaydi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda esa R.X. Xalilov, B.T. Mirzayev, M.S. To'xtasinov tadqiqotlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va hududiy qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilingan. Biroq ushbu ishlarda xizmat ko'rsatish sohasiga mos, integratsiyalashgan va bosqichma-bosqich joriy etiladigan mexanizmlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan.



Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari alohida institutlar yoki choralar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish sohasining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni yagona tizim sifatida birlashtiruvchi kompleks yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu holat mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasiga moslashtirilgan raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmini taklif etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganish uchun konseptual, tizimli va tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi baholash yoki empirik o'lchovlarga emas, balki raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirish, ularning tarkibiy elementlarini aniqlash va joriy etish mantiqini asoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotning metodologik asosi institutsional iqtisodiyot nazariyasi, strategik boshqaruv yondashuvi hamda kichik biznesni rivojlantirishga oid tashkiliy-iqtisodiy konsepsiyalarga tayangan holda shakllantirildi. Ushbu yondashuvlar xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini — moslashuvchanlik, xizmat jarayonining nomoddiylik va iste'molchi bilan bevosita o'zaro aloqadorlikni — inobatga olish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi faqat ichki boshqaruv yoki bozor omillari bilan cheklanmay, balki ularni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning qanday shakllantirilganiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, mazkur tadqiqotda raqobatbardoshlikni oshirish jarayoni ko'p darajali, o'zaro bog'liq va bosqichma-bosqich ishlaydigan mexanizm sifatida tahlil qilindi.

1-rasmda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning konseptual modeli aks ettirilgan. Ushbu mexanizm kichik korxonalar faoliyatini alohida boshqaruv yoki bozor omillari doirasida emas, balki institutsional, iqtisodiy va tashkiliy elementlarning o'zaro uyg'unligi asosida ko'rib chiqish zaruratidan kelib chiqadi (1-rasm).



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Rasmda mexanizmning markazida kichik korxonalar faoliyati joylashgan bo'lib, u davlat siyosati, bozor infratuzilmasi va ichki boshqaruv elementlari bilan o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Bunda davlat tomonidan yaratiladigan normativ-huquqiy muhit va rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar kichik korxonalar uchun barqaror faoliyat yuritish sharoitini ta'minlaydi. Bozor infratuzilmasi esa moliyaviy, axborot va konsalting xizmatlari orqali raqobatbardoshlikni oshirishning muhim tashqi manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur mexanizmning ilmiy ahamiyati shundaki, u xizmatlar bozorining o'ziga xos jihatlari – nomoddiylik, iste'molchi bilan bevosita aloqa va yuqori moslashuvchanlik talabini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Natijada, kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayoni fragmentar choralar orqali emas, balki yaxlit va muvofiqlashtirilgan mexanizm sifatida shakllantiriladi.

2-rasmda 1-rasmda keltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amaliyotga tatbiq etishning bosqichma-bosqich modeli ifodalangan. Ushbu model kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonini vaqt va mazmun jihatidan izchil tashkil etish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish modeli


Modelning birinchi – diagnostika bosqichida bozor muhiti, kichik korxonaning ichki resurslari hamda xizmat sifati va iste'molchi talabi tahlil qilinadi. Ushbu bosqich raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi – mexanizmini loyihalash bosqichida tashkiliy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar tizimlashtiriladi. Bu bosqichda boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, narx va rag'batlantirish siyosatini shakllantirish hamda qo'llab-quvvatlovchi institutlardan foydalanish yo'llari aniqlanadi.

Uchinchi – amaliy joriy etish bosqichida xizmat jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion va raqamli yechimlarni joriy etish hamda marketing faoliyatini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlik real iqtisodiy natijalarga aylantiriladi.

To'rtinchi – monitoring va moslashtirish bosqichi esa mexanizmning samaradorligini baholash, iste'molchi qoniqishini tahlil qilish va doimiy takomillashtirishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu bosqich mexanizmning barqarorligini ta'minlab, uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiradi.

3-rasmda xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan uch tomonlama integratsiyalashgan hamkorlik modeli aks ettirilgan. Ushbu model davlat, bozor infratuzilmasi va kichik korxonalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli tarzda yoritadi (3-rasm).



3-rasm. Davlat – bozor infratuzilmasi – kichik korxona o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik modeli

Modelga ko'ra, davlat normativ-huquqiy baza, soliq va moliyaviy rag'batlar hamda infratuzilma siyosati orqali raqobat muhitini shakllantiruvchi asosiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bozor infratuzilmasi esa banklar, konsalting va axborot xizmatlari hamda raqamli platformalar orqali kichik korxonalarning resurslarga kirishini ta'minlaydi.

Kichik korxonalar mazkur tizimda xizmatlar ishlab chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va iste'molchilar bilan bevosita aloqani yo'lga qo'yish orqali bozor talabiga moslashadi. Ushbu uch subyekt o'rtasidagi axborot almashinuvi, moliyaviy oqimlar va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikning oshishiga olib keladi.

Modelning ilmiy yangiligi shundaki, unda kichik korxonalar raqobatbardoshligi alohida subyektlar faoliyati natijasi sifatida emas, balki integratsiyalashgan hamkorlik mahsuli sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv xizmat ko'rsatish sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim nazariy va amaliy asosini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida nafaqat alohida korxonalar faoliyatining samaradorligi, balki hududiy va milliy iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar raqobatbardoshligini faqat narx yoki xizmat sifati kabi alohida omillar hisobiga oshirish uzoq muddatli va barqaror natijalarni ta'minlay olmaydi.

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasiga moslashtirilgan, tashkiliy, iqtisodiy va institutsional elementlarni o'zida mujassam etgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi. Ushbu mexanizm kichik korxonalar faoliyatini bozor muhitiga moslashuvchan tarzda tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish hamda xizmatlar bozorida barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich joriy etish modeli kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonini tizimli ravishda amalga oshirishga xizmat qiladi. Diagnostika, loyihalash, amaliy joriy etish hamda monitoring va moslashtirish bosqichlarining o'zaro uzviy bog'liqligi mexanizmning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida asoslandi.

Shuningdek, davlat, bozor infratuzilmasi va kichik korxonalar o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik modeli xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning institutsional asoslarini yoritib berdi.



Ushbu model kichik korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlatning muvofiqlashtiruvchi roli, bozor infratuzilmasining xizmat ko'rsatuvchi funksiyalari va tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini yagona tizimga birlashtiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy yechimlarni shakllantirishga xizmat qiladi hamda amaliyotda qo'llash uchun metodik va institutsional asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
3. Rodrik D. Industrial Policy for the Twenty-First Century. – Cambridge: Harvard University, 2004.
4. Mintzberg H. The Structuring of Organizations. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1979.
5. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, convergence, and economic performance // Research Policy. – 2014. – Vol. 43(10). – P. 1785–1799.
6. Isenberg D.J. The Entrepreneurship Ecosystem Strategy as a New Paradigm for Economic Policy // Institute of International and European Affairs. – 2011.
7. OECD. Small Businesses, Job Creation and Growth: Facts, Obstacles and Best Practices. – Paris: OECD Publishing, 2017.
8. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. – Washington DC, 2020.
9. Xalilov R.X. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Mirzayev B.T. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda kichik biznesning o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
11. To'xtasinov M.S. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–52.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xizmatlar sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2022–2024 yy.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100